“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA IFODALANGAN UST KIYIM NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARGA MUNOSABATI

Hamdulla Dadaboyev

filol.f.d., professor, ToshDO‘TAU

Annotatsiya “Devonu lug‘otit turk” so‘z boyligida Qoraxoniylar saltanatida yashagan turkiy urug‘lar jonli so‘zlashuv nutqi hamda ilk eski turkiy adabiy tilda qo‘llanishda bo‘lgan maishiy leksikaga salmoqli o‘rin ajratilgan. Ushbu maqolada qardosh turkiy tillar maishiy leksikasining mavzuiy guruhlaridan biri ust kiyim nomlarini anglatuvchi so‘zlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini belgilashda Mahmud Koshg‘ariyning ulkan mehnati tufayli yuzaga chiqqan qomusiy asarning o‘rniga diqqat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: integral sema, eski turkiy til, affiks, kiyim turlari, xususiy ma’no, mutlaq sinonim, Turfon matnlari.

Shuni alohida qayd etish lozimki, “kiyim” integral semasi Mahmud Koshg’ariy lug‘atida *keź*=“kiymoq” fe’lidan hosil qilingan *keźgű* yasamasi bilan ifodalangan (I, 405). Shu o‘rinda, ushbu leksemaning, dastlab qadimgi turkiy tilga oid Turfon matnlarida “kiyim” ma’nosini bildirgan *kedgű tonanğu* juft so‘zi tarkibida (DTS, 293), shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari tilida ham ishlatilganini (DTS, 294) e’tirof etish kerak bo‘ladi. Ayni chog‘da, hozirgi o‘zbek tilida faol ishlatilayotgan *kiyim* so‘zining *kedim, keźim, keyim* fonetik shakllari Yusuf Xos Hojib pandnomasi hamda Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida qo‘llangani (DTS, 293-295), ammo “Devon”da aks etmaganini ta’kidlash kerak. XIII-XIV asr eski turkiy til obidalari tilida *keźim* leksemasi keng ishlatilgan. Chunonchi, uni “Qisasi Rabg‘uziy” (79r3), Xorazm manbalari (SUYa,I, 575) matnida uchratish mumkin. Shu o‘rinda, XIV asrning boshlaridan mazkur leksemaning *keyim//kiyim* fonetik shakli faollashgani natijasi o‘laroq o‘z o‘rnini keyingi shaklga bo‘shatib berish tendensiyasini Rabg‘uziy asarida *keyim//kiyim* (93∨4; 118∨14) “At-tuhfa”da *kiymäk* “kiyim, kechak” (31a11) qo‘llangani bilan izohlash mumkin. “Tarjumon” matnida yuqorida



keltirilgan leksema mavjud emas. Ayni paytda, ushbu obidada *ton* so‘zining “umuman kiyim-kechak” ma’nosini ifodalashi ta’kidlangan (20v5).

Eski o‘zbek tili, xususan, Alisher Navoiy asarlarida *keźgÿ* asosida shakllangan *kiygűlűk* yasamasi “kiyim, libos”ni bildirgan (ANATIL, II,113). Hozirgi o‘zbek tilida *kiyim* leksemasi “badanni va tana a’zolarini berkitish, yopish uchun kiyiladigan, asosan mato va teridan tikib tayyorlanadigan narsalarning umumiy nomi” (O‘TIL, I, 385) ni ifodalaydi. Hozirgi turk tilida qayd etilgan semema *giyecek* va *giyim* yasamalari bilan anglashilmoqda (TRSl, 340). E.Sevortyan lug‘atida *ked=*, keź= fe’li zaminida yuzaga chiqqan yasamalarning asosan uch affiks bilan qardosh turkiy tillarda qo‘llanishi aytilgan: 1) **–(i)m**: *gey-im* turkman, ozarbayjon, *giyim* turk, qo‘miq, *gi:m* gagauz, *keyim* lobnor, *kiyim* qirg‘iz, qoraqalpoq, o‘zbek, uyg‘ur, oltoy, *kiim* qozoq, tatar, *kïyïm* boshqird; 2**)- qi-ki-gü:** *kezgi* sarig’uyg’ur, *kezgu* sarikuygur; 3) **-ï+sï** (egalik qo‘shimchasi) *–geyisi, geysi* turk, *gi: si* gagauz va h.k. (ESTYa, III, 13-14). Hozirgi qozoq tilida *kiim* leksemasi “odam ustiga kiyishga mo‘ljallab tikilgan buyumlarning umumiy nomi” sememasi bilan *kiim-kešek* juft so‘zining sinonimi hisoblanadi[1].

Keź= “kiymoq” fe’lidan ***-t*** affiksi bilan yasalgan *keźűt* leksemasi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan “kiyiladigan kiyim” tarzida izohlanib, ko‘pincha bu so‘zning to‘yda kelin va kuyov yaqinlariga hurmat yuzasidan kiydiriladigan to‘nga nisbatan aytilishi alohida qaydlangan (I, 338-339). “Qutadg‘u bilig” matnida ushbu yasama “to‘n” ma’nosida qo‘llangan (DTS, 294). Hozirgi o‘zbek millati vakillari to‘ylarida kelin yoki kuyov tomon yaqinlariga hurmat yuzasidan kiydiriladigan ust kiyim *to‘n* yoki *chopon* so‘zlari bilan ataladi.

Eski o‘zbek adabiy tili, jumladan, Alisher Navoiy va Zahiruddin Muhammad Bobur asarlarida faol ishlatilgan hamda “sovut, zirh” ma’nosini anglatgan *kejim//kečim* terminining kelib chiqish nuqtai nazidan *ked= keż=* “kiymoq,

[1] Қазақ тілінің синонимдер сөздігі. Алматы, 2005. –Б.305.



yopmoq” fe’lidan yasalganiga yana bir bor diqqatni qaratish zarur[2].

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida Qoraxoniylar davrida muayyan jins yoki tabaqa vakillariga mo‘ljallab tikilgan kiyim turlari haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltirgan. Chunonchi, o‘g‘uz tilida xotinlarning yengi yo‘q ust kiyimi *terinčäk* leksemasi bilan ifodalanishi bayon etilgan (I, 467). Bizningcha, mazkur maishiy ma’noli so‘z **-čäk** affiksi asosida shakllangan.

Qadimgi turkiy tilda “kalta ichki kiyim” ma’nosi *čekräk* derivati bilan anglashilgan (DTS, 143). Lug‘atshunos “qullar kiyadigan va jundan to‘qilgan bir xil kiyim”ning *čekräk qapa* birikmasi bilan ifodalanishini e’tirof etgan. (I, 442).

Hozirgi turk tilida “ayollar yelkaga tashlab yuradigan yengil kiyim, yopqich” ma’nosida qo‘llanayotgan *kap* so‘zining (TRSL, 508) yuqorida kuzatilgan birikma tarkibidagi *qapa* leksemasiga aloqasi borligi aniq. Kezi kelganda, yana bir mulohazani o‘rtaga tashlash maqsadga molik. XIV asr Xorazm obidalari til xususiyatlarini chuqur tadqiq etgan E.Fozilov Sayfi Saroyining “Guliston bit turkiy” asarida “kiyim” ma’nosida ishlatilgan *qabà* (قبأ) leksemasini tojikcha-forscha qatlam sirasiga kiritgan va ayni chog‘da, “Arab filologi turk tili haqida” asarida “ust kiyim” ma’nosidagi *qaba* so‘zining mavjudligini ta’kidlaydi (SUYa, II,574). Eski o‘zbek tili, xususan, Alisher Navoiy nazmida *qabà* so‘zining “erkaklarning uzun ust kiyimi (jubba ostidan kiyiladi) ifodalanishi va uning arab tilidan o‘zlashganligi belgilangan (ANATIL, IV, 11).

“Tojik tili lug‘ati”da *qabo* leksemasining arab tiliga xosligi va mumtoz tojik-fors obidalari tilida” erkaklarning ust kiyimi” ma’nosini anglatgani qayd etilgan[3].

Turfon matnlarida *kedgű tonanğu,* “Hibat ul-haqoyiq”da *kedim ton*, uyg‘ur yuridik hujjatlarida *ton kedim* juft so‘zlarining umum “kiyim” ma’nosida ishlatilishi har ikki so‘zning moziyda mutlaq sinonim bo‘lganligini bildiradi. *Ton* leksemasining “Devon”da “kiyim” ma’nosida 62 marta ishlatilishi, uning eski

[2] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы «В», «Г» и «Д». М.: Наука, 1980. -С. 13

[3] Фарҳанги забони тоҷикӣ. II. М., 1969. –Б.660



turkiy tilda qay darajada faol bo‘lganligini dalillaydi. Mazkur leksemaning shuningdek, “to‘n, chopon” differensial ma’noni ifodalashiga oid ashyoviy misollar “Devon”da kuzatiladi: *Ol tonuğ ičlädi*- u to‘nga astar qildi (I, 282). Qoraxoniylar davri eski turkiy tilda tonning integral ma’nosi yetakchilik qilganligini *tonan*= “kiyinmoq”, *tonat*= “kiyintirmoq”, *tončï* “tikuvchi” singari leksemalar misolida e’tirof etish o‘rinli.

Mahmud Koshg‘ariy “to‘n, ust kiyim”ning shakli-shamoyili, holatini baholashda *ton* so‘zini boshqa turkum so‘zlar, ayniqsa, belgi-sifat va harakatni ifodalovchi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishgan tarzini ham nazardan qochirmaydi. Chunonchi, *uluq ton* “eski to‘n” (I, 149), *eski ton* “eski to‘n” (I, 149), *qaqač ton* “kir to‘n” (I, 340), *keŋ ton* “keng to‘n” (III, 370), *kök ton* “ko‘k rangli to‘n” (III, 146), *qaldurğa ton* “shaldiroq to‘n” (III, 446) shular sirasidandir. ifodalagan va h.k. XIII-XIV asr turkiy til yodgorliklarida *ton* so‘zi “ust-kiyim, ust-bosh, libos” ma’nosini anglatganini “Qisasi Rabg‘uziy” (12r1), “At-tuhfa” (10a3), “Guliston bit turkiy” (20b4), “Nahj ul-farodis” (62b9), “Xusrav va Shirin” (92b12) matnida ko‘rish mumkin. “Tarjumon” muallifi *ton* leksemasini “barcha kiyim-kechaklar” tarzida izohlagan (20b5). Eski o‘zbek tili manbalarida ham *ton* aksariyat “kiyim, sarpo, libos”ni anglatishda davom etgan. Hozirgi o‘zbek tilida “oldi ochiq uzun ustki milliy kiyim” sememasi *to‘n* leksemasi yordamida ifodalanadi (O‘TIL, II, 249). Hozirgi turk tilida *don* so‘zi “har qanday kiyim” umumiy ma’nosi qatori, “ishton” xususiy semasini ham anglatadi. Qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘ay tillarida *ton* “po‘stin”ni bildiradi. Sh.Usmonovaning fikricha, tahlil etilayotgan leksema turkiy tillarga tungus-manjur tillardan o‘zlashgan[4].

“Devon”da *ton* so‘zi “tashqari” ma’nosini bildirgan *taš* leksemasi bilan birikib, *taš ton* birikmasini yuzaga chiqargan va “tashqaridan kiyiladigan to‘n, ustki to‘n”ni ifodalagan (III,166). Boshqa eski turkiy til manbalarida bu leksema kuzatilmaydi.

“Kalta paxtali to‘n” sememasi lug‘atda *jeŋšű* leksemasi bilan ifodalangan

[4] Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Тошкент: Фан, 2010. -Б. 129-131.



(III, 388). “Qadimgi turkiy lug‘at”da bu so‘z *čeŋšű* fonetik shaklida “kurtka” tarzida izohlangan (DTS, 144). Boshqa eski turkiy til yodgorliklarida kuzatilmagan ushbu so‘zning kelib chiqishi xususida biror mulohaza yuritish, hozircha, amri mahol. Shu bois tekshirilayotgan leksemaning xusuiy ma’no kasb etganligi, ya’ni aynan kalta paxtali to‘nni ifodalaganini qayd etish bilan kifoyalanish mumkin.

Lug‘atda “yaxtak, bir qavatli ustki to‘n, partuq” ma’nosi *partu* leksemasi yordamida ifodalangan (I, 393). “Qadimgi turkiy lug‘at”da mazkur so‘zning “kalta ust kiyim (kurtka) ma’nosida “Devon”ning faksimilesida mavjud *bertű* leksemasiga ma’lum darajada aloqadorligi ko‘rsatilgan (DTS,396). “Devon”ni nashr etgan S.Mutallibov *partu* so‘zi xususida mulohaza yuritib, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” lug‘atida *partuq* so‘zining borligi, uning “orqasi bog‘ichlik, ish va ovqat mahalida tutiladigan *partuq* so‘zi kabi” ekanligini ta’kidlaydi (I, 393).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *fartuk* leksemasining rus tili orqali nemis tilidan kirib kelgani hamda, odatda kiyimni iflos qilmaslik uchun libos ustidan kiyiladigan yoki belga bog‘lab olinadigan ish kiyimi, etak, peshbandni anglatishi ta’kidlangan (O‘TIL,II,296). *Partu//bertű* so‘zlarining ilk eski turkiy tilda qo‘llanishda bo‘lganligi rus tilidagi *fartuk* so‘zi etimologiyasiga boshqacharoq yondashish kerakligini ko‘rsatadi.

To‘nning yana bir navi, ya’ni “ikki yengi qisqa to‘n” *qulaq ton* birikmasi bilan ifodalangan (I, 365). Qisqa yenglarining to‘nning ikki tomondan osilib turishi tashqaridan qaraganda quloqni eslatgani sababli ular jonzot a’zolariga tashbeh qilingani ehtimoldan xoli emas. Shu o‘rinda, XIV asr eski turkiy tilning noyob obidasi “Qisasi Rabg‘uziy” matnida to‘nning turlarini ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanilganiga diqqat qaratish maqsadga muvofiq. Zero, payg‘ambarlar tarixiga oid ushbu asarda ishlatilgan leksik birliklarning aksariyati XI-XII asr manbalarida bor. Bizningcha, qissada qayd etilgan quyidagi leksik birliklar ilk eski turkiy til uchun begona bo‘lmagan.

Ton tub so‘zining nafaqat erkaklar, balki ayollar ust kiyimini anglatganini



asardagi mana bu faktik material tasdiqlaydi: …*Atika tonïn pàra-pàra qïlïb bihuš boldï* (188v12). *Ton* so‘zi *arïğ* “toza;yangi” hamda *opraq* “uvada; eski” leksemalari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, *arïğ ton* “yangi to‘n” hamda *opraq ton* “uvada ust kiyim” birikmalarini yuzaga chiqargan: *Mubašširağa aydïlar*: *Bu yetimni opraq tonlar birlä-oq tutğïl, arïğ tonlar kiyidűrmägil* (Qisasi Rabg‘uziy, 188r12). Qissada hikoya qilinayotgan voqeadan *arïğ ton* o‘ziga to‘q, mol-mulki bor shaxslar kiyadigan ust kiyimni, *opraq ton* esa asosan yetim-yesirlar, yo‘qsillar, bechoralar choponini nomlaganini bilib olish mumkin. Qissa matnida nafis Misr matosidan tikilgan ust kiyim,choponning “Daqq=i Misriy” izofasi bilan atalishi ko‘zga tashlanadi: *Makkaliklär közindin yïraq boldï ersä teväčilär tonïn čïqarïb “Daqq=i Misriy” atlïğ ton kiydűrgil”* (1885). Jumlada ishlatilgan *teväčilär tonï* relyativ izofasi savdo karvonining asosiy ulovi hisoblangan tuyalarni yetaklab boruvchi tuyakashlar kiyadigan ust kiyim, to‘nni ifodalamoqda. Har ikki izofali birikma mazmun-mohiyatan jamiyat a’zolarining ijtimoiy hayotdagi mavqei, tutgan o‘rnini belgilashda o‘ziga xos mezon vazifasini o‘tagan deyish mumkin.

Garchi t*on* leksemasi alohida ishlatilgan o‘rinlarda umum ma’noni anglatsa-da, lekin *yigitlär* va *qïzlar* so‘zlari bilan valentlik munosabatida xususiy, ya’ni differensial “yigitlar kiyadigan to‘n”va “qizlar ust kiyimi” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Tört yűz qul oğlanlar qïzlar tonïn kiyib, yana tört yűz qïz oğlanlar yigitlär tonïn kiyib … erdilär* (Qisasi Rabg‘uziy,124v6). *Ton* so‘zining “urush , jang” ma’nosidagi *sančïš* leksemasi bilan birikib, “zirh, sovut” sememasini anglatishiga doir hodisa ham Rabg‘uziy asari matnida kuzatiladi: *Luqmàn bildikim, sančïš tonï turur* (136v16). E’tirof etish joizki, hukmdorlar uchun qimmatbaho toshlar, oltin va kumush iplar bilan murassa’ qilingan maxsus ust kiyimlar *pàdšàhàna ton* birikmasi bilan atalgani Rabg‘uziy tomonidan ta’kidlangan: *Tört miŋ qulğa pàdšàhàna tonlar kiydűrűb...*(QR,148v11).

“Devon”da “kiyim, to‘n” ma’nosini ifodalash, shuningdek *qaftan* leksemasi zimmasida bo‘lganligi ham qayd etilgan: *Ol qaftanïğ qurladï* U to‘nga belbog‘ olib, uni to‘n ustidan bog‘ladi (III, 313). *Qap*= “qoplamoq, o‘ramoq” fe’liga *ton*



“kiyim” so‘zini qo‘shishdan yuzaga chiqqan leksema “Tarjumon” matnida *qapton* fonetik shaklida qo‘llangan (19v7). Boshqa eski turkiy til obidalarida mazkur so‘z ko‘zga tashlanmaydi. Alisher Navoiy asarlari so‘z boyligi tarkibida “sovut ostidan kiyiladigan to‘n, kaftan” sememasi *xaftan* leksemasi bilan anglashilgan:

Sinànlar sarïğ rang qalqan dağï

Kejimlär sarïğ jins xaftan dağï (ANATIL, III, 388).

“Mahbub ul-qulub” asarida qayd etilgan quyidagi ashyoviy misolda *xaftan* so‘zining “qimmatbaho to‘n” ma’nosini ifodalaganini ko‘ramiz: *Eski čapan bilä fàrïğ tufrağda olturmaq yaxšïraqkim zarbàft xaftan kiyib biräv alïda turmaq* (ANATIL, III, 388). Tahlil etilayotgan leksema hozirgi qardosh turkiy tillarda keng qo‘llanishda qolmoqda. Chunonchi, turk tilida *kaftan* “hashamatli ustki kiyim”, tatar, boshqird tillarida *kaftan* “kaftan, chakmon”, ozarbayjon tilida *qaftan*, chuvash, no‘g‘ay, qarachay-bolqor tilida *kaptal* “kaftan, chakmon”ni bildiradi[5].

Shu o‘rinda, hozirgi rus tilida *kaftan* o‘zlashmasining “kaftan, chakmon” ma’nosida faol ishlatilishini eslab o‘tish joiz (RUSl, I, 428).

Ust kiyimlar qanday material-matodan tikilgani, qaysi mavsumga mo‘ljallab tayyorlangani jihatidan ham rang-barang bo‘lgan. Ularning nomlarini ifodalash uchun turfa leksemalardan foydalanilgan.

Hozirgi to‘nchilik sanoatida yalang qavat to‘n va paxtali to‘n o‘zaro farqlanadi. Mahmud Koshg‘ariy davrida ham to‘nchilikda paxta tolasidan keng istifoda etilganini “Devon”da izohlangan bir nechta leksema misolida kuzatish mumkin. Chunonchi, “paxtali to‘n” ma’nosidagi *yalma* so‘zining ma’nosiga lug‘at muallifi alohida to‘xtalib “paxtali to‘n” tarzida izohlar ekan, bu leksemaning fors tilida *yalma,* arab tilida *yalmaq* shaklida qo‘llanishini e’tirof etadi. Ayni chog‘da, *yalma* so‘zini hech kim turklar forslardan o‘zlashtirgan, deb da’vo qilaolmasligini, zero, bu leksema eng chekka, qor va yomg‘ir ko‘p yog‘adigan yurtlarda yashovchi, boshqa xalqlardan ko‘ra bu xil yomg‘ir yopinchig‘iga muhtoj xalqlar tilida ishlatilishini bayon etgan (III, 41-42). Garchi Mahmud Koshg‘ariy tahlil

[5] Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Тошкент: Фан. 2010. –Б. 218.



etilayotgan so‘zni yuqoridagi ma’noda izohlagan bo‘lsa-da, keyingi bayondan uning “yomg‘irpo‘sh”ni anglatishi ayonlashiladi. *Yalma* so‘zining etimologiyasi hamda oltoy tillari uchun mushtarakligi haqida turkologiyada qator g‘oyalar ilgari surilganini[6] hisobga olib, biz faqat uning ilk bor “Kultegin bitiktoshi” matnida kuzatilgani (DTS, 229), o‘zga eski turkiy til obidalarida qayd etilmasligini ta’kidlash bilan kifoyalanamiz.

“Devon”da *yalma* leksemasining sinonimi sifatida **yağ=** “yog‘moq” fe’lidan **–qu** affiksi yordamida hosil qilingan *yağqu* so‘zining yengillatilgan *yaqu* fonetik shakli “yomg‘irpo‘sh” ma’nosida qo‘llanishda bo‘lganligi ta’kidlangan (III, 31). J.Klauson keyingi fonetik shaklning **yağ=** fe’li asosida voqelanganini e’tirof etgan[7]. **–ğu** affiksli yasamalar haqidagi Mahmud Koshg‘ariy ta’limotiga diqqat qaratilsa, qo‘shimchaning fe’llarga qo‘shilib, qurol otini yasashi, bu xususiyatning turkiy tillarning hammasiga ham umumiyligining zikr etilgani kuzatiladi. Shu o‘rinda, lug‘atshunosning yuqorida keltirilgan ikki leksema ifodalagan narsa-buyumning qanday material-matodan tayyorlanishi xususida ma’lumot keltirmagani va o‘z navbatida, *keyűk (key=* “kiymoq”) motivlangan leksemaning “namat va kigizlardan qilingan yomg‘ir yopinchig‘i” ma’nosini ifodalashi, ushbu so‘zning esa *ź* harfi (tovushini) *y* ga aylantiruvchilar tiliga xosligi haqidagi mulohazasi muhim ilmiy ahamiyatga molikdir.ź harfi (tovushi) bilan aytiladigan so‘zlarning *y* harfi (tovushi) bilan almashinishining qaysi tillarga xosligi borasidagi savolga lug‘atnavisning mana bu ta’kidini keltiramiz: .... chigillarda *ź* bilan aytiladigan so‘zlar yag‘mo, tuxsi, o‘g‘uz va Chinga qadar cho‘zilgan yerlarda yashovchi ba’zi arg‘ularda *y* bilan almashadi (I, 68). Turkiylar hayotida alohida mavqega ega kigiz va namatning nafaqat to‘shama buyum, shuningdek, yomg‘irpo‘sh, yopinchiq tayyorlashda ham xomashyo vazifasini o‘taganini lug‘atdagi quyidagi misoldan bilib olamiz:

Kedűklűk kïziz – yomg‘irda yopinchiq qilish uchun tayyorlangan namat (I,

[6] Шу муаллиф. Кўрсатилган манба. –Б.114-115.

[7] Clauson J. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-century Turkish –New York: Oxford Press. 1970. –p 898.



466). Yomg‘irpo‘sh, yopinchiq, ayniqsa, umrining katta qismini ochiq joy, yaylovlarda o‘tkazadigan cho‘ponlar turmush tarzida alohida ahamiyat kasb etgan. Seryog‘in kezlarda cho‘ponlar yomg‘ir va qordan saqlanish maqsadida kiyadigan yomg‘irpo‘sh “yopmoq, berkitmoq” ma’nosidagi *yap*= fe’li asosida shakllangan *yaptač* motivlangan leksemasi bilan ifodalangan (I, 45). Eski o‘zbek adabiy tilida “yomg‘irda kiyiladigan jun chakmon” sememasi *kepänäk* yasamasi bilan ifodalangan (ВД,II,413). Hozirgi qozoq tilida *kebenek* leksemasi “qishda cho‘ponlar kiyadigan kigiz chakmon”ni, turk tilida *kepenek* “cho‘ponlar kiyadigan choksiz, yengsiz kigiz kiyim”ni anglatadi[8].

Ma’lumki, “ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshiga yopinib yuradigan soxta yengil to‘nsimon uzun yoping‘ich” sememsi o‘zbek tilida arab tilidan o‘zlashgan *paranji* leksemasi bilan anlashiladi (O‘TIL, II, 572). “Devon”da “kelin ko‘chganda, yurganda begonalardan yashirinish uchun yopinadigan narsa” ma’nosi *didäk* so‘zi bilan ifodalangan (I, 387). O‘zga eski turkiy til obidalarida bu leksema kuzatilmaydi.

Lug‘atda “yopmoq, berkitmoq, to‘smoq” ma’nosidagi *köši*= fe’lidan hosil qilingan *köšik* derivatining “yopish, bekitish” ma’nosi qatori, “yopinchiq”ni ham ifodalashi xususida qayd mavjud (I, 387). Yusuf Xos Hojib bu leksemani “himoya, pana joy” ma’nosida qo‘llagan (DTS, 319). Shu o‘rinda, qadimgi turkiy til obidasi “Oltun yoruq”da “yopinchiq” ma’nosining *köšätri* yasamasi bilan anglashilganini ta’kidlash lozim (DTS,319). Mahmud Koshg‘ariy asarida *köšigä* “kichik, yengil soya” (III, 189) köshiklig‘ yər “soyali yer” (I, 466), *köšűn*= 1. “soyaga o‘tmoq, 2. bekinmoq” so‘zlarining izohlaridan kelib chiqib, *köšik* leksemasi “quyosh nuridan, taftidan saqlash maqsadida foydalaniladigan yopinchiq”ni bildirgan, degan xulosaga kelish o‘rinli. Hozirgi qardosh turkiy tillarda tahlil etilayotgan leksema qo‘llanmaydi. Ta’kidlash lozimki, moziyda ishlatilgan so‘zlarning muayyan qismi iste’moldan chiqib ketgan bo‘lsa-da, lekin ular ifodalagan ma’noga yaqin sememani anglatuvchi ba’zi so‘zlar kunimizgacha yetib kelgan. XV asr obidalari

[8] Қаранг: Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. Тошкент: Фан. 2010. –Б.117-119.



tilida ilk bor kuzatilgan (At-tuhfa, 29a6; SUY, I, 634; Rabg‘uziy, 141v9) hamda “baland, bahavo qilib solingan yengil imorat” sememasini bildiruvchi *köšk* leksemasi hozirgi turk tili (TRSl, 568) va hozirgi o‘zbek tilida (O‘TIL, I, 424) faol qo‘llanmoqda. “Turkcha-ruscha lug‘at”da ushbu so‘zning asl turkiy qatlamga xosligi ko‘rsatilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ko‘shk* forscha-tojikcha o‘zlashma tarzida keltirilgan. Bizningcha, ushbu leksema yuqorida zikr etilgan *köši*= fe’li asosida yasalgan va uni sof turkiy so‘z sifatida baholash to‘g‘ri. Turkiyshunoslikda turkiy tillardagi *köšik* so‘zining mo‘g‘ulcha *kösige*< *kösi*< *kusu* “qayin” va +**ge** qo‘shimchasidan yasalgan, degan mulohaza ham yo‘q emas[9].

Lug‘atshunosning guvohlik berishicha, qipchoq urug‘i vakillari yomg‘ir paytida kiyiladigan yopinchiq tayyorlashda paxta ipidan to‘qilgan uzun-uzun oq yo‘lli kiyimlikdan foydalanganlar. Bunday kiyimlik *kemäk* so‘zi bilan anglashilgan (I, 372). O‘zga eski turkiy til manbalarida bu yasama ishlatilgan emas.

“Tananing yuqori qismiga moslab tikilgan yalang qavat yupqa kiyim” sememasining hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ko‘ylak* so‘zi bilan anglashilishi (O‘TIL, I, 412) ko‘pchilikka ma’lum. Lug‘atda ayni semema *köŋläk* fonetik shakldagi leksema bilan ifodalangan (III, 394). SH.Rahmatullayevning fikricha, o‘zbek tilida *ŋ* undoshi y undoshiga almashgan, *ö* unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: *köŋläk*>*köyläk*> *koyläk*. O‘zbek tili shevalarida leksemaning *koynäk* tarzi ham uchraydi (O‘TEL, I, 223). So‘zning “Devon”da qayd etilgan fonetik shakli “Tarjumon” (19v8) va XIV asr Xorazm obidalarida (SUYa, I, 621) takrorlangan. “Qisasi Rabg‘uziy”da bu so”z *köŋläk* shaklida taxminan o‘ttiz marta qo‘llangan (20 r1). “At-tuhfa” da *kömläk* fonetik shaklining qipchoq tilida (29a1), *kögläk* fonetik variantining esa boshqa turkiy tillarda qo‘llanishi ta’kidlangan (18b12). Hozirgi qardosh turkiy tillarda turli fonetik shakllarda “yupqa, yengil va yoqali kiyim”, “ustki kiyim”, “ichki kiyim”, “ayollarning ich ko‘ylagi”, “kitob jildi” singari ma’nolar kasb etayotgan *könläk* leksemasining etimologiyasini *könläk* “ko‘ylak”< “teridan tikilgan kiyim”< *kön* “ishlangan teri” + **läk** tarzida keltirilishi

[9] Шу муаллиф. Кўрсатилган манба –Б 110-111.



ilmiy haqiqatga yaqindir[10].Hozirgi turk tilida kuzatilgan leksema *gömlek* fonetik shaklida to‘rt ma’noda qo‘llanishi bilan xarakterlanadi (TRSl, 344).

Ajdodlar chorvachilik bilan shug‘ullanish natijasida hayvonlarning yungidan turli maqsadlar, jumladan, kiyim-kechak tayyorlashda unumli foydalanishgan. Ayniqsa, turfa kiyim turlarini tikishda tuya, qo‘y va echki yungi qo‘l kelgan. Mahmud Koshg‘ariy ushbu jihatga ham alohida diqqat qaratgan hamda “tuya yoki qo‘y yungidan tayyorlangan ust kiyim turi”ning *qars* so‘zi bilan ifodalanishini ta’kidlagan (I,333). O‘zga turkiy manbalar so‘z boyligida mazkur leksema kuzatilmadi.

Hozirgi o‘zbek tilida “ko‘ylak ustidan, kostyum, kamzul ichidan kiyiladigan yengsiz va yoqasiz kalta va ixcham kiyim (asosan xotinlar kiyadi)” sememasi *nimcha* leksemasi bilan anglashiladi (O‘TIL, I, 303). Qayd etilgan sememani ifodalash eski turkiy tilda “ortmoq, ziyoda bo‘lmoq” ma’nosidagi *art*= fe’liga ot va sifat turkumga oid so‘zlar yasovchi -(i)g‘ affiksining qo‘shilishidan yuzaga kelgan *artiğ* derivati bilan ifodalangan (I,123). Mazkur so‘z ham faqat Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida berilgani bilan xarakterlidir.

Xullas, Turkologiya hamda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud Koshg’ariyning mashhur ensiklopedik asari hozirgi qardosh turkiy tillar mayishi leksikasining shakkanishi borasidagi masalalarga oydinlik kiritishda tengsiz manba sanaladi.

SHARTLI QISQARTMALAR VA ADABIYOTLAR:

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг тзоҳли луғати. I-IV.-Тошкент: Фан, 1983-1985.

At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку. Грамматический трактат XIV века на арабском языке. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, глоссарий, грамматический указатель Э.И.Фазылова и Т.М.Зияевой. - Ташкент: Фан, 1978.

BD-Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий.-Т. I-II.

[10] Шу муаллиф. Кўрсатилган манба. –Б 132-133.



–СПб., 1869; 1871.

Devon – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. –Тошкент, 1960-1963.

DTS – Дренетюркский словарь.-Л., 1969.

ESTYa–Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских язқков.Т.I-II. М., 1974, 1978.

O‘TEL-Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т.I.-Тошкент: Университет, 2000

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Т.I-II. –М.: Русский язык, 1981.

Qisasi Rabg‘uziy – Rabghuzi. Narrationes dde Prophetis Cod. Mus. Brit.ADD 7851.reproduced in Facsimile with an introction by K. Gronbech.-Copenhagen, 1984.

RUSl – Русско-узбекский словарь. Т.I-II.-Ташкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1983-1984.

SUYa –Фазылов Э.И. Староузбекский язык Хорезмийские памятники XIV века.- Т.I-II.-Ташкент, 1966, 1971.

TRSl – Турецко-русский словарь. 48000 слов.-М.: Русский язык, 1977.